



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



BOBUR VA BOBURIYLAR ADABIY VA ILMIY MEROSI, MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI

Qoraxo‘jayev Saydullo

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti 3 kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bobur va uning avlodlari tomonidan qoldirilgan beba ho ilmiy va ma’naviy-madaniy meros to’g’risida so’z boradi. Shuningdek Turkiy tilning Bobur saroyida muloqot tili sifatida amal qilishi, hukmdor hamda ijodkor Boburning, asosan, turkiy tilda qalam tebratishi va adabiy merosini o’z davridayoq ko’plab kitobxonlar tomonidan sevib o’qilishi hamda adabiy muhit to’g’risida chuqur mulohazalar yuritilgan.

Kalit so’zlar: Bobur, adabiy va ilmiy meros, manbashunoslik, tarixshunoslik, turkiy til, chig’atoy turkiysi, Hindiston, “Boburnoma, ilm-fan, ma’daniyat.

Abstract: This article discusses the invaluable scientific and spiritual-cultural heritage left by Babur and his descendants. It also discusses the use of the Turkic language as a language of communication in Babur’s court, the fact that the ruler and creator Babur wrote mainly in Turkic, and that his literary heritage was loved and read by many readers in his time, as well as the literary environment.

Keywords: Babur, literary and scientific heritage, source studies, historiography, Turkic language, Chigatay Turkic, India, "Baburnama, science, culture.

Аннотация: В статье рассматривается бесценное научное, духовное и культурное наследие, оставленное Бабуром и его потомками. Также в книге подробно рассматриваются вопросы использования турецкого языка в качестве языка общения при дворе Бабура, тот факт, что правитель и создатель Бабур писал в основном на турецком языке, и что его литературное наследие любили и читали многие современники. а также литературная среда.

Ключевые слова: Бабур, литературное и научное наследие, источниковедение, историография, тюркский язык, чигатайский тюркизм, Индия, «Бабурнаме», наука, культура.

Kirish

Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar hukmronligi davri (1526-1858) Hindiston adabiy muhitida forsiy, hindiy, urdu tillari bilan birgalikda turkiy til (eski o’zbek tili, chig’atoy turkiysi) ham o’z mavqiega ega edi. Turkiy tilning Bobur saroyida muloqot tili sifatida amal qilishi, hukmdor hamda ijodkor Boburning, asosan, turkiy tilda qalam tebratishi va adabiy merosini o’z davridayoq ko’plab kitobxonlar tomonidan sevib o’qilishi adabiy muhitga ham o’z ta’sirini ko’rsatmay qolmadı. Turkiy tildagi adabiyot boshqa tillardagi adabiyot bilan yonma-yon holatda rivojlandi, forsiy-turkiy tillarga asoslangan zullisonaynlik an’anasining shakllanishiga imkon yaratildi. Natijada Hind adabiy muhitidagi forsiy-hindiy, forsiy-urdu tillariga asoslangan zullisonaynlik safi forsiy-turkiy tillardagi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ikkitillilik bilan boyidi, rangbaranglashdi. XVI-XVIII asrlarda yaratilgan tarixiy, adabiy manbalar, qo‘lyozma asarlardagi ma’lumotlarga tayanib aytish mumkinki, turkiy til asosan Bobur, Humoyun hukmronligi davrida ularning va ular atrofidagi Bayramxon, Komron Mirzo, Shayx Zayn, Xo‘ja Kalon, Turdibek Xoksor, Forig‘iy kabi turkiygo‘y ijodkorlarning sa’yharakatlari bilan adabiy muhitda yetakchi tillardan biriga aylandi, lekin davlat tili darajasiga ko‘tarila olmadi. Boburning qisqa muddatli hukmronligi davrida Hindiston adabiy muhitiga kirib kelgan turkiy til, Humoyun hukmronligi davrida ham adabiy muhitning yetakchi tillaridan bo‘ldi. U turkiy tilga alohida e’tiborda bo‘lib, saroy adabiy muhitida bu tilda ijod etishni qo‘llab-quvvatlashdi, hatto o‘zi ham shu tilda ijod etdi. Uning turkiy tilga bo‘lgan rag‘bati hamda bu tildagi she’riyati haqida munozarali fikrlar ham bor.

Boburiyzoda hukmdorlardan Akbar davrida O‘rta Osiyodan ilm-fan, madaniyat, adabiyotning eng ko‘p sonli vakillari kirib kelgan bo‘lsa-da, turkiy tilga bo‘lgan e’tibor ancha pasaygan, forsiy til davlat tili darajasiga ko‘tarilgan, adabiy muhitda ham bu tilga e’tibor kuchaygan. Bu haqda akademik S.Azimjonova shunday yozadi: “Boburning o‘g‘illari Humoyun, Komron va ularning atrofidagilar saroyda fors va urdu tillari bilan bir qatorda eski o‘zbek tilini ham saqlab qolishga intilishgan bo‘lsa, Akbar bu oqimni qo‘llab-quvvatlashdan to‘xtaydi. U sanskrit tilidan ham, eski o‘zbek tilidan ham muhim tarixiy asarlarni fors tiliga tarjima qilishda katta mehnat qiladi. Shunday qilib, Akbarshoh davrida “Boburnoma” birinchi marta Abdurahimxon tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. “Boburnoma”ni fors tiliga tarjima qilish zarurati, albatta, mamlakat ijtimoiy hayoti taqozo etgan katta talablar bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Hindistonga Bobur tomonidan olib kelingan va Humoyun, Komron, Bayramxonlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan eski o‘zbek tili ma’lum rol o‘ynagan bo‘lsa-da, mamlakat madaniy hayotida yetakchi o‘rin egallagan davlat tiliga aylana olmadi. Akbarshoh davrida bunday til forsiy til edi. O‘rta asrlarda Hindistonda fors tilining o‘rni katta edi, chunki bu til Hindistonda yashovchi turli xalqlar o‘rtasida vositachi bo‘lib xizmat qilgan”. Bunga sabab Akbar podshohning ijtimoiy-siyosiy sohalarda olib borgan islohatlari edi. Chunki u musulmon va hindularning madaniy uyg‘unligiga ko‘proq urg‘u berdi. Buning natijasida uning hukmronligi davrida “mo‘g‘ullar davlati asta-sekin o‘z qiyofasini o‘zgartirib, yangi kelgan unsurlar, begonalar holatidan umumhind davlatiga aylandi.

Boburiyzoda hukmdorlardan Avrangzeb Olamgir (1658-1707) davrida turkiy tilning mavqeい nisbatan biroz yuqorilaydi. Bu davrda yaratilgan lug‘atlar, mazkur tilda yaratilgan asarlar, shu tildagi yozishmalar fikrimiz dalilidir. Muhammad Yaqub Changiy Avrangzebning ko‘rsatmasi bilan “Kelurnoma” yoki “Chig‘atoy-forscha lug‘at” nomli asarni turkiy tildagi yaratgan. Muhammad Yoqub Changiy o‘z kitobiga qisqacha so‘zboshi berib, unda eski o‘zbek tilining grammatic tuzilishiga bag‘ishlangan kitob yaratish g‘oyasini unga Avrangzebning o‘zi bergenligini ta’kidladi. Bu muqaddimada aytishchicha, “Kelurnoma” muallifi Avrangzebning saroy olimi va uning ilm-fan, madaniyat va adabiyot sohasidagi ichki faoliyatining ilhomlantiruvchisi bo‘lgan. Changiy o‘z homiysi haqida o‘zgacha iliqlik bilan gapirib, kitob so‘zboshiga unga bag‘ishlangan she’riy qasida qo‘yadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Bu qasida eski o‘zbek tilida, kitobning so‘zboshi esa fors tilida yozilgan. Bularning barchasi Avrengzebning o‘zi ham turkiy tilini yaxshi bilganidan dalolat beradi.

Ulug‘ bobomizning sertashvish hayoti va jo‘shqin faoliyati siyosiy jihatdan inqirozga uchragan Temuriylar davlatining so‘nggi davriga to‘g‘ri keldi. Ushbu davr barcha azob-uqubatlarini boshdan kechirish Bobur Mirzo chekiga tushdi. Tarix maydonida kechgan turli qarama-qarshiliklardan so‘ng Bobur Kobul sari yo‘l oldi. Ona yurt sog‘inchi va qaytish istagi unga bir umr hamroh bo‘lsa-da, hozirgi Afg‘oniston, Pokiston va Hindistonning tarixiy hududlarida ulkan sultanat tashkil etdi. Tarix zarvaraqlarida bu davlat Boburiylar sulolasi nomi bilan bitildi. Bobur ota-bobolarining ilm-ma’rifat va mamlakat obodligi yo‘lidagi ezgu ishlarini davom ettirib, kelgusi avlodlarga katta meros qoldirdi. Hindistonlik tarixchilar Bobur hukmronlik davrini turlicha talqin qilsa-da, u asos solgan sulola ushbu mamlakat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘sghanini e’tirof etadi. Bobomiz harbiy yurishlar bilan birga, Agra va Dehlida yirik bog‘lar, ariq va hammomlar qurdirdi, masjid, maktablar bunyod etdi. Ilm-ma’rifatga katta e’tibor qaratdi. Bugungi kunda Bobur va Boburiylarga taalluqli ko‘plab moddiy boylik va asarlar, qo‘lyozmalar dunyo bo‘ylab keng tarqalgan. Masalan, unga tegishli noyob qilich Nyu-Yorkning Metropoliten muzeyida saqlanadi. Bobomizga in’om qilingan Ko‘hinur olmosi esa Buyuk Britaniya qirollik oilasi tomonidan tasarruf etiladi. Buyuk sarkarda va davlat arbobi Boburning tarixiy ashyolari dunyo muzeylari va shaxsiy kolleksiyalardan joy olgan. Shuningdek, Hindistonda ham Bobur va Boburiylarga tegishli buyumlar, tarixiy manbalar juda ko‘p. 1528-yilda yozilgan “Devoni Bobur”ning asl qo‘lyozmasi va 1640-yilda chizilgan “Shahzoda Doro Shukuhning to‘y marosimi” miniatyurasining nusxalari shular jumlasidan. Hozirgi kungacha dunyo qo‘lyozma fondlari va kutubxonalarida Bobur devonining 9 ta qo‘lyozma nusxasi borligi aniqlangan. Bugungi kunda Boburiylar qoldirgan merosni o‘rganish va xalqimizga yetkazish borasida Tashqi ishlar vazirligi, mamlakatimizning Hindiston va Pokistondagi elchixonalari tomonidan izchil tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, buyuk davlat arbobi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun arafasida Hindistondagi elchixonamiz bilan Rampur Raza kutubxonasi hamkorligida Boburiylar davriga oid qo‘lyozma hamda miniatyuralar ko‘rgazmasi tashkil etildi. Bobur asarlaridan parchalar, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Shohjahon va Avrangzeb tasvirlangan miniatyura, kitoblardagi rasm, badiiy asarlar ko‘rgazma ekspozitsiyasidan joy oldi. Zahiriddin Muhammad Bobur Hindiston tarixida alohida o‘rin olgan shaxslardan biri, – deydi ijtimoiy fanlar doktori, filolog-sharqshunos Naki Abbas Kaifi (Hindiston). – Shoh va shoir, uning avlodlari Hindiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy rivojiga munosib hissa qo‘sghan. Boburiylar ko‘plab inshootlar bunyod qildi. Hind xalqi ular bilan hamisha faxlanib kelgan. Qayd etish joiz, Hindistonda 1774-yilda tashkil etilgan Rampur Raza kutubxonasida Boburga tegishli ko‘plab qo‘lyozma, nodir eksponatlar saqlanadi. Muzeyning Boburiylar davri tarixi, adabiyoti va san’ati bilan bog‘liq bo‘limi ko‘pchilikda alohida qiziqish uyg‘otadi. Mashhur “Devoni Bobur”ning asl nusxasi ham shu yerda saqlanmoqda. Bobur unda o‘z qo‘li bilan bitgan satrlar mavjud. Boburiylar Hindiston





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sghan shaxslardir, – deydi Rampur Raza kutbxonasi mas’ul kotibi Sanam Ali Xon. – Bu tarixiy haqiqat. Boburiy podshohlar ilm-fan, buniyodkorlik sohasida boshqalarga o‘rnak hisoblanadi. Ular homiyligida qurilgan binolar bugun Hindiston, Pokiston, Bangladesh xalqlarining faxridir. Shuningdek, Boburiylar aql-zakavot, ijodiy ishlarda ko‘pchilikka o‘rnak. Ushbu sulola vakillari tomonidan qoldirilgan bebaho ma’naviy meros hind va o‘zbek xalqlari boyligi. Rampur Raza kutubxonasida saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasiga oid tarixiy ashyolar madaniy ildizlarimiz, tariximiz o‘xshashligidan dalolat. Kutubxonamizda Bubur va Boburiylarga oid ko‘plab asarlarning asl qo‘lyozma nusxalarini saqlanadi, – deydi kutubxona katta texnik xodimi Sayyid Tarik Azhar. – Ushbu madaniy meros namunalaridan dunyo ahlini bahramand qilish maqsadida turli nusxalar olinib, ular raqamlı formati shakllantirilmoqda. Kelajakda bu boradagi ishlarni O‘zbekiston bilan davom ettirish, hamkorlikda ko‘rgazmalar tashkil qilish va tarixiy obidalarni saqlash sohasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish niyatidamiz. Zero, Boburiylar qoldirigan bebaho meros – bu ular bunyod etgan inshootlardir. Bugungi kunda Hindiston, Pokiston va Afg‘onistonda Bobur, uning avlodlari tomonidan qurilgan ko‘plab obidalar dunyo jamoatchiligi e’tiborini qozonib kelayotir.

Darhaqiqat, xalqlar o‘rtasidagi ma’naviy-ma’rifiy, ilm-fan sohasidagi yaqinlik buyuk ajdodlar qurdirgan imoratlarda ham o‘z aksini topgan. Xususan, Dehlidagi Humoyun maqbarasi, “Qizil qal’a”, “Ko‘hna qal’a”, Agradagi “Toj Mahal” va Akbarshoh maqbarasi kabi majmualar Hindiston va O‘zbekiston umumiy tarixi, madaniy an’analari haqida so‘zlaydi. Boburiylar sulolasining buyuk namoyandalaridan Akbarshoh davri obidalardan biri – Lahor qal’asidir, 1566-yilda Lahor qal’asi bunyod etiladi. Jahongir hukmronligi davrida qurilgan “Xiron-minor”, Jahongir maqbarasi, Shohjahon hukmronlik yillari barpo etilgan Shohjahon masjidi va Shalimar bog‘lari jahon me’morchiligining nodir durdonalari hisoblanadi. Shalimar bog‘lari 1981-yili YUNESKO ro‘yxatiga kirilgan. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Shu o‘rinda ta’kidlash joiz, Pokiston hududida Boburiylar tomonidan bunyod etilgan inshootlarning katta qismi Lahor shahrida joylashgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu shahar o‘z davrida Boburiylarning yirik ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy markazlaridan hisoblangan.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Yurtimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida tariximizni, buyuk ajdodlarimiz merosini o‘rganish va ularni yoshlari o‘rtasida keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu yoshlarni buyuk ajdodlar qoldirgan meros va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilyapti. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari tomonidan qoldirilgan bebaho ilmiy va ma’naviy-madaniy meros esa buyuk bobokalonlarimiz bilan faxrlanish, yurtni, Vatanni sevish tuyg‘ularini yana-da jo‘sh urdiradi. Shuni takidlashimiz joizki Boburiylar davri adabiy muhitida turkiy tilning forsiy, hindiy, urdu tillari bilan yonma-yon holatda mavjud bo‘lishi Zahiriddin Muhammad Boburning sa'yharakatlariga bevosita bog‘liq edi. Boburiylarning keyingi avlodlari davri adabiy muhitida turkiy tilning mavqeい Bobur,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Humoyun, Avrangzeb davridagidek yuqori bo‘lmanan bo‘lsa-da, butunlay iste’moldan chiqib ketmadi. Saroya turkiy tilga bo‘lgan e’tibor butunlay yo‘qolib ketmadi. Bunga sabab boburiy hukmdorlarining ota yurti - Movarounnahr, umuman, O‘rta Osiyo bilan aloqalarining yaqinligi, bu o‘lkaga bo‘lgan qiziqishi, e’tiborida edi. Boburiylar davrida turkiy til bir tekis rivojlanish bosqichida bo‘lmasa-da, adabiy muhitda shu tildagi adabiyotning vujudga kelishiga to‘sinqilik qilmadi. Natijada XVI asrda turkiy tildagi adabiyot teritoriya jihatdan kengayib, Hindistonda ham yangi bir qatlamni tashkil etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur/ Boburnoma: - T.: "Yangi asr avlod", 2018. - 704 b.
2. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. – Toshkent.: «Iqtisod - moliya» - 2007 y. 320 b.
3. .Toshmatov Sh.X, X.S.Asatullaev, Z.B.Allaberganov Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. T., 2019 y. 352 b
4. Mustafayevich, S. A. (2023). YOSHLARNING IQTISODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI IQTISODIY QARASHLARINING O ‘RNI. Научный Фокус, 1(7), 1142-1145.
5. Ashurbek, S., & Paxmohob, X. Z. Financial System and Financial Policy. JournalNX, 658-661.
6. Musurmanov, A. N., Satbarov, A. A., Suyarov, A. M., & Xakimova, I. X. (2023). CLUSTERED DISCIPLINARY FACTORS OF SCHOOL LESSONS IN MODERNIZED EDUCATION CONDITIONS AS A SOCIAL PEDAGOGICAL PROBLEM. Boletin de Literatura Oral-The Literary Journal, 10(1), 2605-26147. Иномхожиев Р. Бобур ва Хиндистон туркийзабон адабиёти// Адабий мерос. -Тошкент, 1991. 4-сон. 13-19-бетлар.
7. Иномхожиев Р. Тюрко-персидское двуязычие в литературной жизни Индии XVI в.–Т.: “Фан”, 1993. -Стр.208.
8. Қаюмов А.Асарлар. 10-жилд. (Хинд адабий сарманзиллари). –Т.: “Mumtoz so’z”, 2010. – Б.304.
9. Мирзоев А. Из истории литературных связей Мавераннахра и Индии во второй половине XVI – начале XVII в. – Москва: 1963. -Стр.8.(Доклад. XXVI Междунар. Конгресс востоковедов. №38.)
10. Низомутдинов И. Из истории среднеазиатско-индийских отношений (IX—XVIII вв.). -Т.: “Узбекистан”, 1969. – Стр. 144.
11. Низомиддинов И. Маданий ҳамкорлигимиз саҳифаларидан. -Т.: «Фан», 1987. -Б.54.
12. Низомиддинов Н. XVI-XVIII асрларда Ҳиндистондаги туркийгўй шоирларнинг адабий мероси. Фил.фанлар илмий даражасини олиш учун ёзилган дис-я. -Т.: 1993. -Б.122.
13. Низомиддинов Н. Бобурийлар даври Ҳиндистон туркий тили ва адабиёти. – Т.: А.Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи. 2010.-Б.332.

